

AZIZ NESIN HIKOYALARIDA TIBBIYOT MAVZUSI

Ergashova Gulsanam

Fargʻona davlat universiteti filologiya fakulteti

oʻzbek tili yoʻnalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Aziz Nesin – turk adabiyotining eng mashhur yozuvchisi hisoblanadi. Uning “Noyob mikroba” va “Bizda vrach boʻla olasizmi?” hikoyalari jamiyatdagi adolatsizliklarni oʻziga xos tarzda koʻrsatadi. Ushbu maqolada Aziz Nesinning hikoyalaridagi ijtimoiy tanqid va jamiyatdagi muammolar tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: hajv, gumanistik, yumoristik element, tibbiyot.

KIRISH

Aziz Nesin – ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlarni tanqidiy yoritishda katta mahoratga ega boʻlgan yozuvchi. Uning asarlari oddiy odamlar hayotidagi muammolar, jamiyat tizimidagi nosozliklar va inson tabiatidagi qarama-qarshiliklarni hajviy tilda tasvirlash orqali katta taʼsir kuchiga ega. Ayniqsa, “Noyob mikroba” va “Bizda vrach boʻla olasizmi?” hikoyalari hajviy adabiyotning ajoyib namunalari sifatida tan olingan. Bu asarlarda yozuvchining ijtimoiy masalalarga boʻlgan qarashlari, hokimiyat tizimining yomon taraflariga tanqidiy munosabati ochib berilgan.

ASOSIY QISM

“Noyob mikroba” hikoyasi oʻziga xos bir voqea – koʻz kasalliklari klinikasida yuz bergan voqealarga asoslanadi. Klinikaga tushgan bir bemorning salomatligi yomonlashadi, shuning ortidan professor va uning jamoasi yangi mikrobnani aniqlaydi. Ularning bu kashfiyoti jahon uchun katta ahamiyatga ega boʻlishi mumkin, lekin u faqat bemorning salomatligi yomonlashishi orqali amalga oshadi. Bu hikoyada, ayniqsa, shaxsiy manfaat va inson hayoti orasidagi ziddiyat yoritiladi. Aziz Nesin ushbu asarda ilmiy tadqiqotlarning bemorlar salomatligi va insoniy qadriyatlariga boʻlgan munosabatini shakllantiradi.

Professorning mikrobnı o‘rganishga juda ham qiziqishi, uning bemorning ahvoriga nisbatan bee’tiborligi haqidagi tanqidlar muallifning gumanistik ta’limotlariga to‘liq mos keladi. Ilmni aynan inson hayotining yuksalishi uchun so‘zlab, professorning bu davrdagi aqlli, ammo atrofıdagi odamlar uchun bee’tibor va hatto nafaqat ijtimoiy, balki axloqiy nuqtai nazardan ham noto‘g‘ri faoliyati tanqid qilinadi. Tadqiqotchilarning bu ilmiy muhitdagi ortiqcha itoatkarliklari va mustaqil fikr yuritmaydigan holatlari ham bunday ilmiy muhitning yomon samaralarini ko‘rsatib beradi.

Hikoyaning ko‘p qismida professorning “ilmiy general” sifatida tasvirlanishi, mikrobgaga nisbatan tajriba va bemorning yomonlashgan ahvoli orasidan faqat ilmiy manfaatlarni birlashtirishi asarning ijtimoiy mazmunini yanada chuqurroq tushuntirishga yordam beradi. Bu epizodlarda ko‘rsatilgan muammolar, insonlarning kasallik va ilmning o‘rtasidagi noxush tanlovlari haqidagi og‘ir haqiqatlarni o‘z ichiga oladi.

“Bizda vrach bo‘la olasizmi?” hikoyasida ham hokimiyat tizimining tibbiyot sohasidagi yomon ishlariga ishora qiladi. Bu hikoyada xorijda ta’lim olgan va yordam berish uchun yurtiga qaytgan shifokorning tizimga kirib, boshqaruvchi shaxslar bilan kurashgani tasvirlanadi. Bosh qahramon, oddiy shifokor bo‘lishga intilganida, u aynan bir doktor tomonidan savol-javob qilinadi. Bir tarafdin, uning tibbiy bilimlarini sinash uchun boshqa sohalarga bo‘ysunish lozimligi bilan muloqotlarni yuritishga undaladi.

Hikoyadagi yumoristik elementlar doktor tomonidan berilgan savollar orqali ko‘rsatiladi. Masalan, shifokordan she‘r yozish, biznes bilan shug‘ullanish yoki siyosatga aralashish qobiliyati so‘ralishi, tibbiy bilimlariga emas, balki boshqa sohalarga yo‘naltirishi orqali ochib beriladi. Bunday ma’lumotlar tizimning to‘g‘ri ishlamayotganligini ko‘rsatadi va uning ahamiyati tushuntiriladi. Tibbiyot sohasidagi “maklerlik” faoliyati va doktorlarning ahmoqona savollari hikoyada hajviy tarzda, biroq achinarli tarzda yoritiladi. Bu epizodlar tizimdagi hokimiyatning muammolariga ishora qilish orqali inson va jamiyatga qanday zarar yetkazishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Aziz Nesinning har ikkala asarida uning ijtimoiy tanqidga bo‘lgan yondashuvi aniq ko‘rinadi. Yozuvchi ijtimoiy hayotdagi nosozliklar va inson tabiatidagi muammolarni

yumoristik va achinarli tarzda ochib beradi. Bu nafaqat o‘quvchini ko‘p kuldirishga, balki uni shunchaki aniq fikr yuritishga undaydi. Hikoyalardagi yumor asarlarning mazmuni bilan birga, yozuvchining jamiyatga bo‘lgan salbiy tanqidini ifodalaydi.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Aziz Nesin hikoyalari nafaqat Turkiya adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham muhim ahamiyatga ega. Uning ijodida ko‘rsatilgan ijtimoiy tanqid, tibbiyot tizimining yomon taraflari va insonning ishlashi bilan bog‘liq muammolarni yumor orqali ochib berish orqali insoniyatni yaxshilikka chaqirishga intiladi. Aziz Nesinning ijtimoiy hajvdagi mohirligini ko‘rsatish bilan birga, insonlar o‘rtasidagi insonparvarlik va axloqiy holatlarni ham tahlil qilib, ularning hayotiga bir qayta nazar tashlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nesin A. Turk adabiyotining sara asarlari. – Toshkent, 2018.
2. Ziyouz.com.
3. O‘zME.birinchi jild. Toshkent, 2022.